



## 66. Qo'shish va ayirish operatsiyalari, ularning bog'liqligi

Yondosh mavzu:  
atrofidamizdagi fan

Harfiy ifodalar,  
o'zgaruvchilar



Qismlarni toping

1. Topshiriqlarga doir ifodalar tuzing.

- a)  $x$  kg o'tin yoqilganidan keyin  $y$  kg kul hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan kul o'tindan qancha yengil?  
b) Gulxanga  $x$  ta yirik va  $t$  ta kichik g'o'la qo'yildi. Gulxanga jami qancha g'o'la qo'yilgan?



### Harfiy ifodalar

**Harflarni o'z ichiga olgan ifoda, harfli ifoda deb ataladi.**

**Ko'pincha harflar umumiy so'z bilan "o'zgaruvchilar" deb ataladi:**

**$x - t + y$  ifodada uchta:  $x$ ,  $y$  va  $t$  o'zgaruvchi bor.**



2. Ifodalarni o'zingizga ma'lum bo'lgan operatsiyalar belgilaridan foydalanib yozing:

- a) 173 va  $t$  sonlari yig'indisi; b)  $d$  va 480 sonlari ayirmasi;  
d) 636 va  $m$  sonlari yig'indisi; e)  $a$ ,  $b$  va  $c$  sonlari yig'indisi.



3. Ifodalarning qiymatini hisoblang:

- a)  $287 - t + 36$ , bunda  $t = 119$ ;  
b)  $635 + y - 220$ , bunda  $y = 340$ ;  
d)  $t - (a + b + c)$ , bunda  $a = 150$ ,  $b = 130$ ,  $c = 180$ ,  $t = 600$ .

16



4. Taqqoslang.

$$d + 229 \quad \square \quad 229 + d$$

$$m + 331 \quad \square \quad m + 229$$

$$h - 300 \quad \square \quad h - 100$$

$$500 - k \quad \square \quad 400 - k$$

## 66. Qo'shish va ayirish operatsiyalari, ularning bog'liqligi




5. Masalaning savoliga javob berish uchun tengsizlik yozing.  
Qiziqarli kimyo fani mashg'ulotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga  $m$  ta probirka va 12 ta kolba, yuqori sinf o'quvchilariga  $m$  ta probirka va 23 ta kolba berildi. Qaysi sinfda ko'proq kimyoviy idishlar ishlatilgan?



6. Rasm yordamida ifodaning ma'nosini tushuntiring. Har bir ifodaga masala o'ylab toping.

$$\begin{array}{r} 8 + 7 \\ 15 - 8 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 8 - 7 \\ 15 - 8 - 7 \end{array}$$



7. Dorixonaga 340 shisha yod va yana 240 shisha ko'kdori olib kelindi. Hafta davomida 127 shisha yod va 72 shisha ko'kdori sotildi.
- Dorixonada qancha yod qoldi?
  - Dorixonada qancha ko'kdori qoldi?
  - Dorixonada jami qancha yod va ko'kdori qolgan?



8. Kraxmal olish uchun biz 750 kg kartoshka va 280 kg makkajo'xori sotib oldik. Kraxmalni olganimizndan keyin 476 kg kartoshka va 123 kg makkajo'xori qoldig'i qoldi. Ulardan qancha kraxmal olingan?



9. Birinchi ustunga sonli ifodalarni, ikkinchisiga harfiy ifodalarni yozing. Sonli ifodalarning qiymatini hisoblang.

$$206 - d + 13$$

$$133 + 11 - 108$$

$$724 + t - 66$$

$$220 - (459 - 360)$$

$$665 + 190 + 35$$

$$378 + m + 24$$